

Qo'chqarova Shakarjon Azimboy qizi  
Urganch davlat universiteti  
tayanch doktoranti  
[qochqarovashakarjon@gmail.com](mailto:qochqarovashakarjon@gmail.com)

## O'ZBEK TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA MOTIVATSION YONDASHUV

**Annotatsiya.** Hozirgi ta'lim tizimida o'quvchilarning faqatgina nazariy bilimlarini shakllantirish bilan cheklanib qolish mumkin emas. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kommunikativ, ijodiy, ijtimoiy va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu kompetensiyalarni shakllantirishda motivatsion yondashuvning ahamiyati beqiyosdir. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning qiziqishini oshirish, ularni mustaqil o'rganishga rag'batlantirish va bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyojlarini uyg'otish orqali tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga erishish mumkin. Ushbu maqolada motivatsion yondashuvning mohiyati, uning o'zbek tili darslaridagi o'rni, tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishdagi roli va samarali usullari keng yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Kompetensiya, tayanch kompetensiya, malaka, kompetentlik, kommunikativ, ustuvorlik.

### МОТИВАЦИОННЫЙ ПОДХОД В РАЗВИТИИ БАЗОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

**Аннотация.** В современной системе образования невозможно ограничиться только формированием теоретических знаний учащихся. Развитие коммуникативных, творческих, социальных и информационно-коммуникативных навыков у учащихся в процессе обучения признается одной из основных задач образования. Значение мотивационного подхода в формировании этих компетенций неоценимо. На уроках узбекского языка развитие базовых компетенций может быть достигнуто за счет повышения заинтересованности учащихся, стимулирования их к самостоятельному обучению и пробуждения внутренних потребностей в получении знаний. В данной статье будет подробно освещена сущность мотивационного подхода, его место на уроках узбекского языка, роль и эффективные методы в развитии базовых компетенций.

**Ключевые слова:** компетентность, базовая компетентность, компетентность, компетентность, коммуникативность, приоритет.

### A MOTIVATIONAL APPROACH TO THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' BASIC COMPETENCIES IN UZBEK LANGUAGE LESSONS

**Annotation.** In the modern education system, it is impossible to limit oneself to the formation of students' theoretical knowledge. The development of students' communicative, creative, social, and information-communication skills in the learning process is recognized as one of the main objectives of education. The importance of the motivational approach in the formation of these competencies is invaluable. In Uzbek language lessons, the development of basic competencies can be achieved by increasing students' interest, stimulating them to learn independently, and awakening their inner needs for knowledge. This article will cover in detail the essence of the motivational approach, its place in Uzbek language lessons, the role and effective methods in the development of basic competencies.

**Keywords:** competence, basic competence, competence, competence, communication, priority.

Motivatsiya o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ichki va tashqi qiziqishlarini shakllantirish jarayonidir. Motivatsion yondashuv o'quvchining darsdagi faolligini oshirish va bilim olishga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishni maqsad qiladi. U ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi:

**Ichki motivatsiya:** Bu o'quvchining mavzuga bo'lgan shaxsiy qiziqishidan kelib chiqadi. Masalan, mavzuni tushunish orqali yangi bilimlarga ega bo'lish yoki uni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyati ichki motivatsiyani oshiradi.

**Tashqi motivatsiya:** Bu o'quvchining tashqi omillar, masalan, yuqori baholar olish, maqtov eshitish yoki raqobatda muvaffaqiyat qozonish orqali rag'batlantirilishidir.

Motivatsion yondashuv ta'limning qiziqarli, samarali va maqsadli bo'lishiga xizmat qiladi.

**Motiv va motivatsiya muommosi jahon psixologiyasida turli –tuman nuqtai nazaridan yondashish orqali tadqiq qilib kelinmoqda. Rus va sobiq sovet psixologiyasi namoyondalari K.D.Ushinskiy, I.M. Sechenov, I.P.Pavlov, V.M. Bexeterov, A.F. Lazurskiy, V.S.Merlin, A.A. Uxtomskiy, va boshqalar bu muammo yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borganlar. Yevropa va Amerika mamlakatlarida motivatsiyaga oid 30 dan ortiq ilmiy konsepsiyalar mavjuddir.**

**Motiv Insonni xatti harakati va ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga undovchi sababga aytiladi.**

**Motivatsiya odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui bo'lib , xulq – atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni hisoblanib unga tashabbus , yo'nalganlik tashkilotchilik , qo'llab quvvatlash kiradi.**

Motivatsiya ta'rifiga ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud: Rus olimi Maslov Motivatsiya atamasiga quyidagicha yondashadi. "Motivatsiya shaxsning biror-bir qismi, tomoni emas, balki uning butun shaxsiyatiga tegishli. Har qanday psixologik yoki fiziologik holat, tanadagi biror bir o'zgarish ham ma'lum darajada motivatsiya bilan bog'liq". [1] Maslou ehtiyojlarning muhimlik darajasi kamayish tartibida taqsimladi. Ehtiyojlarning bunday tizimlanishini Maslou toki inson sodda narsalarga muhtoj bo'lar ekan, yuqori darajadagi ehtiyojlarni boshdan kechira olmasligi bilan izohladi. Ya'ni, o'quvchi ta'lim jarayoniga motivatsion yondoshuvda o'quvchida ehtiyojlar ma'lum darajada yetarli darajada bo'lishi kerak. Maslou tasnifiga asosan,

1. Fiziologik ehtiyojlar: ochlik, tashnalik, sovuqdan, nafas oladigan havodan himoyalaniish, yetarli uyqu, og'riqning yo'qligi va boshqalar.
2. Xavfsizlik zarurati: ishonch hissi, qo'rquv va muvaffaqiyatsizlikdan xalos bo'lish;
3. Tegishlilik hissiga ega bo'lish va muhabbatga bo'lgan ehtiyoj.
4. Hurmatga bo'lgan ehtiyoj: muvaffaqiyatga erishish, ijobiy baholanish, tan olish;
5. Kognitiv ehtiyojlar: bilim olish, qodir bo'lish, kashf qilish.
6. Estetik ehtiyojlar: uyg'unlik, tartib, go'zallik.

Bizningcha, o'quvchi mazkur ehtiyojlar o'quvchi kompetentlik darajasini belgilovchi asos hisoblanadi. Biz o'quvchida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda motivatsion yondoshuv jarayonini quyidagicha izohlaymiz.

Fiziologik yondoshuv

Xavfsizlik jihatdan yondoshuv

Tegishlilik jihatdan yondoshuv

Hurmatga bo'lgan ehtiyoj jihatdan motivatsion yondoshuv

Kognitiv ehtiyoj jihatdan yondoshuv

Estetik jihatdan yondoshuv

Fiziologik yondoshuv bo'yicha qilinadigan asosiy ishlar tartibi

1. O'quvchi ovqatlanish tartibini nazorat qilish.
2. O'quvchi uyqu jarayonini tartibga solish ishlari.
3. O'quvchi bo'sh vaqtlarini tartibga solish ishlari.
4. O'quvchidagi garmonal o'zgarishlar fiziologiyasini o'rganish.
5. O'quvchidagi qo'rquv psixologik holatlarni o'rganish.

Xavfsizlik jihatdan yondoshuv bo'yicha qilinadigan asosiy ishlar tartibi

1. O'quvchidagi ishonch hissini aniqlash mavjud holatlarni o'rganish ishlari
2. O'quvchidagi men tushunchasi shakllanish bosqichlarini o'rganish

Kognitiv ehtiyoj jihatdan yondoshuv bo'yicha qilinadigan asosiy ishlar tartibi

1. Bilimga bo'lgan qiziqishlarini anglash
2. Fanga qiziqishlarini aniqlash

Estetik jihatdan yondoshuv

1. O'quvchilarni estetik tarbiyalanganlik darajasini o'rganish
2. Estetik ehtiyojlarini o'rganish

Pedagog Slavkin esa inson harakatlanish yo'lini ochib beruvchi vosita sifatida o'z qarashlarini ifodalaydi. Bu odamni harakatga keltiradigan va o'sha holatda ushlab turadigan ichki turtki, motivatsiya shaxsning harakatlanish yo'lini ochib beradi. [2]

Zimnaya motivatsiyani mexanizm sifatida e'tirof etadi. Insonning har qanday faoliyatini ishga soluvchi mexanizm.[3] Motivatsiya ta'rifiga ta'rifga bir qancha yondashuvlar mavjud: - Amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi. - Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya'ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko'riladi[3]. Ya'ni o'quvchi kompetentligi bu har bir faoliyat jarayonini to'g'ri bajarishi to'g'ri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, har tomonlama rivojlanib, kasbiy o'sishi uchun qaysi yo'nalishda harakatlanishini bilishi kerak ya'ni o'z-o'zini rivojlantira olishi kerak.

G.K.Selevko va uning izdoshlari kompetentlikni shaxsning hayotiy faoliyatga tayyorligi sifatida baholaydilar. Ushbu kompetensiyalar o'quvchilarning bilimlari va hayotiy tajribalariga asoslangan holda shakllanadi. O'quv jarayonida egallangan ushbu bilimlar o'quvchilarning faol ijtimoiylashishlari va hayotiy vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilishlariga ko'maklashadi. Bu shaxsning umumiy layoqatlari sirasiga kirib, egallangan bilimlar uning butun hayotiy faoliyati davomida kompetensiyalarga aylanadi [4]. V.V.Bashevning ta'kidlashicha, kompetensiya sharoitdan kelib chiqqan holda layoqatlarni ko'chirishdan iborat bo'lib, u shaxsning dastlabki hayotiy faoliyati davomida hosil bo'ladi [5].

O'zbek tili darslari nafaqat til qoidalarini o'rgatish, balki o'quvchilarda kommunikativ, ijodiy va analitik kompetensiyalarni shakllantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Motivatsion yondashuvning ahamiyati quyidagi jihatlarida ko'rinadi:

1. Bilimlarni samarali o'zlashtirish.

Motivatsiya bilan ta'minlangan darslar o'quvchilarga mavzuni chuqur tushunish va uni amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Masalan, badiiy matnlarni tahlil qilish orqali o'quvchilar nafaqat grammatik qoidalarini, balki fikr bildirish, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

2. Kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish.

O'zbek tili darslarida dialog, munozara va muhokama orqali o'quvchilarning muloqot qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Motivatsion usullar bu jarayonni yanada samarali qiladi.

Kommunikativ mashqlarni bir nechta turlarga bo'lish mumkin: 1. Og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (matnni qayta so'zlab berish, matn yoki video ketma-ketlikni qayta aytib berish, aytilayotgan vaziyatga nisbatan fikr bildirish, matnni davom ettirish va boshqalar). Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar Yozma nutqni rivojlantirishga qaratilgan kommunikativ mashqlar (berilgan tayanch so'zlar asosida matn tuzish, rasmlar asosida matn tuzish, aralash berilgan gaplardan matn tuzish va boshqalar). 3. O'quvchilarga beriladigan mustaqil topshiriqlar (alohida so'z va so'z brikmalarini to'g'ri talaffuz qilish va o'qish, matnning ayrim qismlarini o'qishnimashq qilish, tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar).

3. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Ijodiy topshiriqlar, masalan, insho yozish yoki she'rlar ustida ishlash o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga rag'batlantiradi. Motivatsiya esa bu jarayonni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

4. O'quvchilar faolligini oshirish.

Interfaol metodlar va rag'batlantiruvchi mashg'ulotlar o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularni faol ishtirok etishga undaydi.

Motivatsion yondashuv orqali tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish

Tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish o'zbek tili darslarining asosiy maqsadlaridan biridir. Motivatsion yondashuv ushbu kompetensiyalarni quyidagicha shakllantiradi:

1. Kommunikativ kompetensiyalar.

Motivatsiya orqali o'quvchilarni muloqot qilishga jalb etish mumkin. Masalan:

Rolli o'yinlar tashkil etish.

Badiiy matnni o'qish va muhokama qilish.

Bu usullar o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantiradi.

2. Ijodiy kompetensiyalar

O'z fikrini yozma ravishda ifodalash, masalan, insho yoki hikoya yozish orqali o'quvchilar ijodkorlikni rivojlantiradi. Motivatsion yondashuv bu jarayonda o'quvchilarning o'z g'oyalarini ilgari surishlariga imkon beradi.

3. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi

Matn tahlili, ma'lumotlarni izlash va tahlil qilish kabi topshiriqlar motivatsion usullar bilan uyg'unlashgan holda taqdim etilsa, o'quvchilarning axborot bilan ishlash qobiliyatlari rivojlanadi.

Azimov va Shukinalar tomonidan tartib berilgan pedagogik ensklopediyada kommunikativ kompetensiyaga bir necha xil ta'riflar keltirilgan. Unga ko'ra: - o'quvchilar uchun kundalik, ta'lim, ishlab chiqarish va madaniy hayotda dolzarb bo'lgan muloqot vazifalarini chet tili yordamida hal qilish qobiliyati; - o'quvchining muloqot maqsadlariga erishish uchun til va nutq faktlaridan foydalanish qobiliyati; - nutq aloqasining turli sharoitlarida lingvistik kompetensiyani amalga oshirish qobiliyati. Psixologik nuqtayi nazardan kommunikativ kompetensiya, eng avvalo, shaxsning nutq faoliyatini uning samarali shakllarida muloqot holatiga adekvat (tenglashgan, mos, aynan bir, o'xshash) tashkil eta olish qobiliyatidir [5].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, til ta'limi jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish eng muhim vazifalardan biridir. Bunda ona tili va o'qish savodxonligi darslari "muloqot darslarga" aylanmog'i lozim. Buning uchun esa har bir darsning eng katta qismi kommunikativ mashqlarga ajratilishi kerak. Kommunikativ mashqlar qanchalik xilma-xil va mazmunli, aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lsa, o'quvchilar shunchalik muloqotchanligi ortadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning tayanch kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining hozirgi holati bo'yicha tahliliy xulosa bir nechta muhim jihatlarni ajratib ko'rsatadi. Zamonaviy ta'lim dasturlari tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish uchun texnologiyadan faol foydalanadi. Interfaol ilovalar, onlayn resurslar va dasturlar bolalarga o'yin orqali bilim olishga yordam beradi, bu esa o'rganishga qiziqish uyg'otadi va o'quv jarayonini faollashtiradi. "Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi"[7] Boshlang'ich maktab o'quvchisining nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining zamonaviy dizayni ta'lim va real vaziyatlar o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikka qaratilgan, turli xil o'rganish usullarini qo'llab-quvvatlaydi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan fikrlar asosida barcha darslarda ham o'quvchilarga ma'lumotlar bilan ishlash va qabul qilishni o'rgatish orqali ularni bilim olishga, shuningdek ijodiy tafakkur qilishga o'z fikrini erkin bayon qilishga o'rgatish mumkin. Ushbu tavsiya qilingan yo'nalishlar asosida darslarni tashkil qilish orqali sinfda jami kamida 35 nafar o'quvchi bilan o'qituvchi muloqot tashkil qila oladi. Bu esa o'quvchiga dars orqali intilish qiziqish uchun bir qadam bo'lib xizmat qiladi. Bugungi darslarda o'quvchi darsga qatnashar ekan o'qituvchi tomonidan aniq yo'nalishli jarayon yo'qligi ya'ni so'z ta'sirining kamligi sabab nutqiy nuqsonlar, kommunikativ qobiliyatning pastligi kabi muammolar kelib chiqyapti. Biz yuqorida yo'nalish asosida dars tuzilishi orqali o'qituvchi darsning har bir

- 54 bosqichini shu yoʻnalishlar ketma-ketligini maqsadli tanlash orqali oʻquvchida nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga asos boʻla oladi. Nazariy va amaliy faoliyatlar shuni anglatadiki, oʻquvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda motivatsiyasini boyitish taʼlim samaradorligi borasidagi ishlarning asosiy mazmuni ekanligini koʻrsatadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Маслоу А. Мотивация и личность. Электрон ресурс:  
<http://psylib.org.ua/books/masla01/index.htm>
2. Slavin, R. E. (2012). Educational psychology. New York: Pearson.
3. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для вузов. 3-е издание, пересмотренное. – Москва: 2010. – 448 с. – С. 410-413
4. Селевко Г. Компетентности и их классификации. // Народное образование - 2004. - № 4, - С.138-143.
5. Башев В.В., И.Д. Фрумин Как можно читать стандарты? Семь вопросов по существу // Директор школы. 1999. №5.
6. Азимова Е.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.
7. Mirziyoyev Sh. Taʼlim-tarbiya tizimi: taraqqiyotining yangi bosqichi muhokama konferensiya nutqi Andijon